



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI – ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI

Madmarov Mirzaabdulla Abrorjon o'g'li.

Namangan davlat universiteti yuridik

fakulteti 1-bosqich talabasi,

madmarovmirzaabdulla86@gmail.com

Tel: +998948956009

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14498756>

ARTICLE INFO

Received: 12th December 2024

Accepted: 14th December 2024

Published: 15th December 2024

KEYWORDS

Temur tuzuklari, Konstitutsiya, Taraqqiyot strategiyasi, Gender tenglik, Demokratiya, Huquqiy davlat, Ijtimoiy davlat, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonun.

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining avvalo, yaratilish tarixi, uning bosqichlari haqida so'z yuritganmiz, bundan tashqari Konstitutsiyamizdagi normalarni boshqa bir qator davlatlarning konstitutsiyasi bilan solishtirganmizni, ko'rishingiz mumkin. Shu bilan birga yangi tahrirdagi konstitutsiya bilan avvalgi konstitutsiyadagi asosiy farqlar, o'zgarishlar va qo'shimchalar tizimli tahlil qilingan. Asosiysi, maqolada yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning "inson – jamiyat – davlat" tamoyillari asosida qurilganligi, davlat boshqaruvining demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy xususiyatlarini atroflicha yoritilgan.

"O'zbekiston – boshqaruvning Respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat"

"Uzbekistan is a sovereign, democratic, legal, social and secular state with a republican form of government"

"Узбекистан – суверенное, демократическое, правовое, социальное и светское государство с республиканской формой правления"

[O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1-moddasi.]

Kirish: Mamlakatimizning uzoq yillik tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak qonunlar doim ezgulikka va taraqqiyotga, asosan vatan sha'ni, tinchlik, sarhadlar daxlsizligi, fidokorlik va sadoqat kabi jihatlarni o'z ichiga olgan. Birgina misol "Temur tuzuklari" nomi bilan Sharq va Osiyo mamlakatlari sivilizatsiyasiga xos bo'lgan sarkarda Amir Temur tomonidan tuzilgan qonun konstitutsiyaviy hujjat xususiyatiga ega bo'lib, yuqorida ko'rsatilgan jihatlarni o'zida jamlab shar'iy qonunlari bilan bir qatorda Markaziy Osiyo xalqlari taqdiriga kuchli ta'sir ko'rsatgan¹. Mamlakatimiz Respublika miqyosiga erishgan yangi tarixdagi Asosiy qonunimiz ya'ni konstitutsiyaga ega bo'lgan bo'lsa, dastlab konstitutsiya muhokamaga qo'yilgan va bu muhokama 3 oy davom etgan, muhokama davomida 6000 ta kelib tushgan takliflar asosida 80 dan ortiq o'zgartirishlar kiritilgan. Dastlab konstitutsiya 1992-yil 8-dekabrda 12-chaqiriq [O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining](#) 11-sessiyasida qabul qilingan. Muqaddima, 6 bo'lim, 26 bob, 128 moddadan iborat qonunimiz, mustaqillik yillarida erishgan

¹ Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy markazi. „["Temur tuzuklari" – muhim tarixiy-huquqiy manba](#)“ (8-aprel 2022-yil).

eng muhim yutuqlarimizdan biri bo'lib, fuqarolarning jamiyatdagi hayoti, huquq va burchlarini muntazam himoya qilish vazifasini bajarib keldi. Bugungi globallashuv jarayonida butun dunyoda shiddat bilan o'zgarayotgan iqtisodiy, siyosiy, va ijtimoiy sharoitlar har bir davlat qonunchiligining zamon talablariga muvofiq o'zgartirilishini taqozo qilmoqda. O'zbekiston ham bundan mustasno emas. Xususan, so'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar mazmun-mohiyatiga ko'ra, "inson – jamiyat – davlat" degan tamoyillarni konstitutsiyaviy qoida sifatida muhrlashga, xalqparvar davlat barpo etishga, inson huquqlarining himoyasi va ijtimoiy muhofazasini kuchaytirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 6 bo'lim 27 bob 155 moddani o'zida jamlashi bilan tom manoda xalqchil konstitutsiya deb belgilanishi va davlatimiz rahbari tomonidan konstitutsiya xalqchil davlat, barqaror taraqqiyot va farovon hayot kafolati², degan shior olg'a surilganligi isbotidir.

Birinchi navbatda biz: Konstitutsiya – demokratik tartibda xalq kiritgan takliflar orqali yangilanishida, umumxalq ovozi orqali referendum asosida qabul qilinishida va davlatning muhim masalalari hal qilinishida xalqning bevosita ishtirok etishida xalqning ro'li va mas'uliyatini oshiradi hamda muhim masalalarni xalqqa tayanib hal qilish tamoyilini yanada kuchaytiradi.

Ikkinchidan, inson, huquq va erkinliklarini xalqaro standartlarga muvofiq ravishda kafolatlashga alohida e'tibor qaratilayotganligini, gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, sohaga oid 25 ta qonunchilik hujjatlari qabul qilindi³. Jumladan, fuqarolarning yashash, ta'lim olish, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va qulay hayot sharoitlariga ega bo'lish huquqlari aniq qilib belgilab qo'yilishi esa davlat siyosati inson huquqlari bilan uyg'unligini ta'minlashga qaratilganini ko'rsatadi.

Uchinchidan, huquq va erkinliklarni ta'minlash jamiyat rivojlanishining ustuvor vazifasi sifatida belgilandi. Prezidentning "Hamamiz yaxshi tushunamizki, qonunlarni qabul qilish — bu ishning bir qismi, xolos" degan so'zlari davlat siyosatining amaliy natijadorlikka yo'naltirilganligini ta'kidlaydi. Bu tamoyil inson huquqlarini so'zda emas, balki real hayotda amalga oshirishni talab qiladi. Bundan tashqari, ekologik barqarorlikni ta'minlash, tadbirkorlik erkinligini rivojlantirish va yoshlarning huquqiy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha aniq mexanizmlar joriy etilgan. Ushbu o'zgarishlar jamiyatni insonparvarlik asosida rivojlantirishga qaratilgan izchil siyosatni aks ettiradi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning **1-moddasiga** e'tibor qaratidigan bo'lsak, yangi tahrirdagi norma davlatimizning qanday davlatga aylanishi, qanday davlat qurish maqsad qilinganligini aniq ko'rsatib turibdi: O'zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat. Ushbu modda negizida juda katta mazmun-mohiyat, islohotlar, erkin va farovon turmush tarzini yaratishga bo'lgan intilishlar yotadi. Bugungi kunda yangi O'zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasini qabul qilish Davlatimiz rahbarining har bir sohadagi tashabbusi va qat'iy siyosiy irodasi bilan Harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilgan va Taraqqiyot strategiyasi asosida davom etayotgan keng qamrovli islohotlar va sa'y-harakatlar natijasida mamlakatimizda ijtimoiy davlat qurish konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi⁴

Shu o'rinda yuqoridagi moddani dispozitsiyasidagi har bir yuridik atamaga alohida to'xtalib o'tsak:

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi, 16.11.2023 yildagi F-72-son

³ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori, 28.05.2021 yildagi SQ-297-IV-son

⁴ F. Otaxonov. Ijtimoiy davlatning konstitutsiyaviy asoslari. https://uza.uz/uz/posts/izhtimoiy-davlatning-konstituciaviy-asoslari_471933.

Ijtimoiy davlat deganda har bir fuqaroning ijtimoiy munosib turmush darajasini taminlash maqsadi yotadi. Xususan aytishimiz darkorki aynan ijtimoiy davlat tushunchasi to'g'risida 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonni taraqqiyot strategiyasining 4-bobida keltirilgan jumlada: Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivolantirish⁵ga alohida e'tibor qaratilgani va mazkur hujjatda belgilangan 43 ta maqsad yurtimizda ijtimoiy hayotni yaxshilashga va farovonlikni taminlashga qaratilganligini ko'rishimiz mumkin.

Dunyoviy davlat — davlatning konstitutsiyaviy huquqiy tavsifi bo'lib, Dunyoviy davlat deganda, davlat bilan din o'rtasidagi nisbat, ya'ni davlatning dinga munosabati, dindan xoli mavjud bo'lishi va rivojlanishini tushunish mumkin. Aniqroq aytganda, Dunyoviy davlat hech bir dinga davlat dini, rasmiy din maqomini bermaydi, dinning siyoslashuviga yo'l qo'ymaydi, ta'lim tizimi va davlat boshqaruvini din ta'siridan holi qilib, o'z yurisdiksiyasida tutuvchi davlat nazarda tutiladi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 31-moddasidagi norma fuqarolarning vijdon va e'tiqod erkinligi huquqini kafolatlaydi. Vijdon va e'tiqod erkinligini o'rnatuvchi konstitutsiyaviy norma qoidalarining amal qilishini ta'minlash maqsadida O'zbekistonda 1998-yil 1-mayda „Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida“gi qonun qabul qilinib, qonun vijdon erkinligini fuqarolarning har qanday dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslikdan iborat kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqi sifatida belgilangan⁶.

Huquqiy davlatda eng oliy qadriyat inson hisoblanadi. Davlat faqat huquq normalarini yaratibgina qolmay, o'zi ham ularga amal qilishi Huquqiy davlatning eng muhim xususiyati hisoblanadi. Huquqiy davlat demokratiyaning ajralmas belgisidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida O'zbekiston xalqi insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko'zlab o'zining muxtor vakillari siymosida davlatimizning asosiy qonunini qabul qilishi ta'kidlab o'tilgan. O'zbekistonning mustaqil davlatchiligi davrida konstitutsiya va qonunlarning ustunligi g'oyasi xalq ijtimoiy ongining tarkibiy qismiga aylandi. Qonunni chetlab o'tish emas, aksincha, qonun talablari asosida, unga mos va muvofiq ravishda yashash lozimligi kishilar ongiga tobora singib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi nafaqat ichki islohotlarni amalga oshirish, balki xalqaro qonunchilik tamoyillari va standartlariga mos ravishda ishlab chiqilgan. Konstitutsiya, ayniqsa, inson huquqlari, gender tenglik, vijdon erkinligi kabi prinsiplarni xalqaro huquq hujjatlari, masalan, inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va bolalar huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga muvofiq ravishda kafolatlaydi. Bundan tashqari, O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasi Yevropa Ittifoqi va Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan belgilangan demokratik va huquqiy davlat prinsiplariga ham to'liq mos keladi. Xususan, Konstitutsiyada keltirilgan fuqarolarning erkinliklari va huquqlari, shuningdek, davlatning huquqiy va dunyoviy xususiyatlari, ko'plab rivojlangan davlatlar, jumladan, Fransiya, Niderlandiya va Shvetsiya kabi mamlakatlarning qonunchiligiga yaqin bo'lib, bu davlatlarning demokratik qadriyatlari va inson huquqlari sohasidagi ilg'or tajribasini o'z ichiga oladi. Konstitutsiyamizdagi normalar va kiritilgan qo'shimcha, o'zgartirishlarning barchasi inson qadri uchun, sha'ni uchun, erkinligi kafolatlari va farovon yashashi uchundir. Yangilangan Konstitutsiya O'zbekistonda barqaror taraqqiyot, adolatli jamiyat va inson huquqlarini ta'minlash yo'lida mustahkam huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Bu hujjatning xalq ishtirokida qabul qilinishi uni haqiqiy xalqchil konstitutsiya sifatida belgilaydi.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son

⁶ <https://library-tsul.uz/uzbekiston-yuridik-entsiklopediyasi-2009/>

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. „O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI“. Lex.uz.
2. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy markazi. „“Temur tuzuklari” – muhim tarixiy-huquqiy manba“ (8-aprel 2022-yil).
3. F. Otaxonov. Ijtimoiy davlatning konstitutsiyaviy asoslari. <https://uza.uz/uz/posts/izhtimoiy-davlatning-konstituciaviy-asoslari-471933>.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori, 28.05.2021 yildagi SQ-297-IV-son
5. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T.; «O'zbekiston», 2019, 1-tom, 107-bet
6. https://constitution.uz/oz/pages/Ekologik_munosabatlar
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi, 16.11.2023 yildagi F-72-son
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son
9. <https://library-tsul.uz/uzbekiston-yuridik-entsiklopediyasi-2009/>. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq; darsiik. - Toshkent; Yuridik adabiyotlar publish, 2023. - 536 bet.

INNOVATIVE
ACADEMY